



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MILLIY URF-ODATLARNI  
O'QUVCHILAR PSIXOLOGIYASIGA MOS RAVISHDA  
SINGDIRISHNING ASOSLARI

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi  
**Sotvoldiyeva Mushtariybonu**

***Annotatsiya:** Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, ma'naviy poklik, hurmat, mehr-oqibat va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Milliy urf-odat va an'analarni bola psixologiyasiga mos ravishda singdirish uzluksiz, tizimli hamda ilmiy asoslangan pedagogik jarayon bo'lib, u shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlaydi. Ushbu maqolada milliy urf-odatlarini o'quvchilar psixologiyasiga singdirishning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** milliy qadriyatlar, urf-odatlar, bola psixologiyasi, tarbiya, ijtimoiylashuv, ma'naviyat, maktab ta'limi*

Bugungi globallashuv, raqamli axborot oqimining tez sur'atlarda kengayib borayotgan davrida umumta'lim o'quvchilarining dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori keskin o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda o'quvchilarda milliy-urf oqat an'analarni shakllantirish masalasi ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Shu bois o'quvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. Avvalo, qadriyatlarning zamonaviy axborot muhitida zaiflashishi, yoshlarning ongiga turli ijtimoiy tarmoqlar, internet kontentlari, tashqi madaniy ta'sirlarning kuchayishi bilan belgilanadi. Bunday sharoitda maktabning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirish, axloqiy tarbiya jarayonini ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish nihoyatda muhimdir. Milliy meros yoshlarning o'zligini anglashiga, ajdodlar qadriyatlarini qadrlashiga hamda ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat



qiladi. Maktab tarbiyasi ana shu boy merosga tayanganda yanada samarali bo'ladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oila va maktabda beriladigan qadriyatlar uning xulq-atvori va dunyoqarashini belgilaydigan bo'lsa, o'quvchilarda axloqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha ham oila, maktab va jamoatchilikning uzviy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Milliy urf-odatlar bolalarda mehr-shafqat, hurmat, jamoaviylik, sabr-toqat va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantiradi. Ushbu fazilatlar esa barqaror shaxs kamolotining asosini tashkil etadi. O'quvchilarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularda ezgulik, halollik, hurmat, odoblilik, mas'uliyatlilik kabi fazilatlarni shakllantirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining kafolatidir. Shuningdek, ushbu mavzu o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an'alarini zamonaviy ta'lim jarayoniga singdirish zaruriyati bilan ham ahamiyatlidir. Maktab yoshi davrida bolalarning ruhiyati juda ta'sirchan, taqlidchan va tez qabul qiluvchan bo'ladi. Shu bois bu davr milliy qadriyatlarni singdirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Tarbiyaviy jarayon o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilganda, natijadorlik yuqori bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy bayrami hisoblangan Navro'z ayyomi va undagi ajoyib bayram shukhi, doshqozondagi sumalak, miilliy taomlar- halim, ko'k chuchvara kabi taomlar va milliy dor o'yinlari bolalarning milliy qadriyatlarga bo'lgan qarashlarini oshiradi. Bunday mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi an'alar bolalarning emotsional hamda axloqiy tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuki kabi qadriyatlar bolalar ongida ijobiy psixologik stereotiplarni shakllantiradi.

## O'quvchilarda milliy urf-odatlarni psixologik jihatdan shakllantiruvchi omillar va ta'siri

| Omil  | Mazmuni   | O'quvchiga ta'siri   |
|---|---|--|
| <br><b>Oila tarbiyasi</b>                  | Ota-ona namunasi, milliy urf-odatlar, oilaviy qadriyatlar, hurmat va odob muhiti  | Bola ongida dastlabki axloqiy me'yorlar, kattalarga hurmat va mehr-oqibat shakllanadi        |
|   | Darslar, tarbiyaviy soatlar, sinfdan tashqari ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar | Intizom, mas'uliyat, jamoada o'zini tutish ko'nikmalari rivojlanadi                          |
| <br><b>Pedagogik texnologiyalar</b>        | Darslar, tarbiyaviy soatlar, sinfdan tashqari ishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar | Intizom, mas'uliyat, jamoada o'zini tutish ko'nikmalari rivojlanadi                          |
|   | Interaktiv metodlar, rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari, muammoli vaziyatlar     | Milliy qadriyatlar qiziqarli tarzda o'zlashtiriladi, tafakkur va mustaqil fikrlash kuchayadi |
| <br><b>Milliy bayram va marosimlar</b>     | Navro'z, Mustaqillik kuni, qadriyat haftaliklari, urf-odatlar namoyishi           | Milliy o'zlikni anglash, faxr va vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi                         |
|   | Hashar, xayriya, ko'ngillilik ishlari, jamoaviy tadbirlar                         | Ijtimoiy faollik, hamkorlik, mehr-shafqat va birdamlik rivojlanadi                           |
| <br><b>Mahalla va jamoatchilik muhiti</b> | Tarbiyaviy videolar, multfilm, jamoaviy tadbirlar                                 | Vizual ta'sir orqali qadriyatlar tez va mustahkam o'zlashtiriladi                            |
|   | Xuq-atvor, nutq madariiyati, adolati munosabat, milliy qadriyat-                  | O'quvchi uchun ideal axloqiy model shakllanadi   |
| <br><b>Sinf jamoasi</b>                  | Guruhli ishlar, dostlik muhiti, o'zaro yordam                                     | Ijtimoiylashuv, bag'rikenglik, jamoaviy mas'uliyat rivojlanadi                               |
|   | Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, xalq og'zaki ijodi, ertak va rivoyatlar          | Axloqiy qarashlar boyiydi, ezigulik va komillikka intilish kuch-                             |
| <br><b>Maktab-olla hamkorligi</b>        | Ota-onalar yig'ilishi, seminarlar, birgalikdagi tadbirlar                         | Tarbiyaviy ta'sir birligi ta'minlanadi, bola psixologik jihatdan barqaror rivojlanadi        |
|   | Ota-onalar yig'ilishi, seminarlar, birgalikdagi tadbirlar                         | Tarbiyaviy ta'sir birligi ta'minlanadi, bola psixologik jihatdan barqaror rivojlanadi        |

O'quvchilarga milliy urf-odatlarni singdirishda quyidagi pedagogik usullar samarali hisoblanadi:

- ertak, hikoya va rivoyatlar orqali qadriyatlarni tushuntirish;
- rolli o'yinlar va sahna ko'rinishlari tashkil etish;
- milliy bayram va marosimlarni amaliy tarzda namoyish qilish;
- jamoaviy tadbirlar, xayriya ishlari va ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish;
- multimedia vositalari va taqdimotlardan foydalanish;
- interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash.



Xalqaro tajribalarda ham milliy urf-odatlarini targ'ib etish, saqlab qolish va rivojlantirish muhim masala hisoblanmoqda. Ko'plab mamlakatlarda madaniy merosni asrash ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. UNESCO (*United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization* — Birlashgan Millatlar Ta'lim, Bilim va Madaniyat Tashkiloti), tomonidan ham yosh avlodni milliy madaniyat asosida tarbiyalash masalasi qo'llab-quvvatlanadi. Bu tajriba milliy qadriyatlarni ta'limga integratsiya qilishning muhimligini tasdiqlaydi.

UNESCO yosh avlodni milliy madaniyat, tarixiy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashni qo'llab-quvvatlab, madaniy merosni asrab-avaylash va xalqaro madaniy almashinuvni rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Ushbu tashkilot O'zbekiston bilan hamkorlikda tarixiy merosni o'rganish va yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha turli tadbirlar, festival va konferensiyalarni o'tkazib keladi.

UNESCO va O'zbekiston hamkorligining asosiy yo'nalishlari:

Tarixiy obidalarni o'rganish: Yoshlarda o'z shahar va qishlog'i bilan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish uchun tarixiy me'moriy obidalarni o'rganishga urg'u beriladi.

- Madaniy merosni asrab-avaylash: Xalqaro miqyosda tarixiy va madaniy merosni saqlash, yosh avlodga yetkazish masalalari ustuvor hisoblanadi.
- Xalqaro tadbirlar: UNESCO rahnamoligida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, Boysun folklor festivali kabi madaniy merosni targ'ib qiluvchi tadbirlar o'tkaziladi.
- Buyuk ajdodlar xotirasi: Amir Temur, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi mutafakkirlarning yubileylari nishonlanib, ularning merosi orqali yoshlar tarbiyalanadi.
- UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi Samarqandda o'tkazilishi ham madaniy merosni asrab-avaylash va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga qaratilgan yuksak e'tiroflardan biridir.



Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning axloqiy madaniyatini rivojlantirish bugungi jamiyat talablariga javob beradigan ijtimoiy mas'uliyatli, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda muhim strategik yo'nalishdir. Bu jarayonni kuchaytirish ta'lim sifatini oshiradi, shaxsning barkamol shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi va kelajak avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida milliy urf-odatlarini o'quvchilar psixologiyasiga mos ravishda singdirish ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va milliy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim omilidir. Mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etish ta'lim sifatini oshiradi hamda kelajak avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipov, Sh. "Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik mexanizmlari." Pedagogika va psixologiya jurnali, №4, 2020.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Cultural Diplomacy and UNESCO (Chen, 2020).
4. To'xtayev, N. Umumiy pedagogika. Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2020.
5. Yo'ldoshev, J., To'rayev, A. Pedagogik kompetensiya va tarbiya jarayoni. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Karimova, V. Psixologiya. Toshkent: Universitet, 2015.
8. Musurmonova, O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent: TDPU, 2019.